

Yordamchi fe'l vazifasida ishlatiluvchi bulunmak fe'li xususida

Davlatov Zoirjon Zokiraliyevich

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti o'qituvchisi

E-mail: zoirjondavlatov133@gmail.com

***Annotatsiya.** Bulunmak fe'lining qo'llanilish doirasi haqida ma'lumot beriladi. Ushbu fe'lning turk tilida yordamchi fe'l sifatida qo'llanilishi borasida misollar bilan yoritib beriladi. Jumalarda fe'lning vazifaviy shakllari bilan qo'llanilib turli xil ma'no anglatishi yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** bilmek, leksema, sema, bosh ma'no, mustaqil ma'no, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so'z.*

***Annotation.** Information is provided about the scope of the verb of opportunity (bulunmak). The use of this verb as an auxiliary verb in Turkish will be explained with examples. Different meanings of the verb are explained in the sentences using functional forms.*

***Key words:** bulunmak, lexeme, sema, main meaning, independent meaning, adverb, adjective, verb, modal word.*

***Аннотация.** Дана информация о значении глагола возможности (булунмак). Использование этого глагола в качестве вспомогательного глагола в турецком языке будет объяснено на примерах. Различные значения глагола поясняются в предложениях с использованием функциональных форм.*

***Ключевые слова:** булунмак, лексема, сема, основное значение, самостоятельное значение, наречие, прилагательное, глагол, модальное слово.*

***Kirish.** O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o'rganish, o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash o'z*

navbatida bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni etishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari turk va xorijlik tilshunoslar, jumladan, rus turkologlarning qator tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Quyida turk tilidagi **bulunmak** fe'lining semantik tahlilini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism. **Bulunmak** fe'lining bosh, asosiy ma'nosi "**bulmak**" harakatining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoq" dir. **Bulunmak** fe'li, shuningdek, "topilmoq, qo'lga kiritmoq, erishmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: *O işi üçümüz beraber yapacaktık zengin koca **bulunca** mükafatımı alacaktım (R.H.K.). Osha ishini uchchalamiz birga qilishimiz kerak edi, boy er **topilgach** mukofotimni olardim. Dağitıcılar limana yanaşan vapurlara kadar giderak sahipler **bulunmamış** mektup ve telgrafları aylarca sorarlar, yıllarca beklerler (R.H.K.). Pochtalyonlar pristandagi paraxodlargacha borib, egalari **topilmagan** ham va telegrammalarini oylar davomida tashishadi, yıllar moboynida kutishadi.*

Bulunmak fe'li belgi bildiruvchi so'zlar bilan kelganida, shu belgi semali so'zning ma'nosiga "bog'liq holda bo'lmoq, ayni holatga o'tmoq" ma'nolarini anglatadi: *Buradan çıkınca Gall'e bir akşam yemeğine **davetli bulunmasaydım** görüşmek isterdim (R.H.K.). Bu yerdan chiqqanimda Gallga kechki taomga taklif qilinmagan bo'lganimda, uchrashishni istardim. Tek gambotu olmayan ve ticaret, hem harp filosundan **yoksun bulunan** bir imparatorluk düşünebilir-mi? (R.H.K.). Bitta qayig'i ham bo'lmagan, tijoriy va harbiy flotdan mahrum bir imperatorlikni tasavvur qilib bo'ladimi?*

Mazkur gaplarning birinchisida "**davletli bulunmak**" taklif qilingan bo'lmoq, ya'ni ma'lum holatga tushmoq ma'nosini ifodalagan, ikkinchisida "yoksun" – "mahrum" sifati ishtirokidagi **bulunmak** fe'li, ma'lum predmetga ega emaslik holatida bo'lish semasini anglatgan.

Tadqiq etilyotgan fe'l kontekstga ko'ra "biron-bir ish bilan

shug‘ullanmoq, mashg‘ul bo‘lmoq, muayyan ishni qilmoq, bajarmoq” semalarini bildishida ishlatiladi. Masalan: *Üçünün de gızlı örgütleri bugün faaliyette bulunmadan ne yapsın? (R.H.K.). Uchchovining yashirin tashkilotlari vozir ham faoliyat ko‘rsatmasdan nima qilsin? **Bulunmak** fe’lining ayni ma’nosi doimiy faoliyat yoki qisqa muddatli yo bir marotabalik xizmat ma’nosini bildirish imkoniga ega. Ayni sema **bulunmak** fe’li ishtirokidagi leksemalarning ma’nolariga bog‘liq holda ifodalanadi. Masalan, keying gaplarning birinchisidagi “hizmet” so‘zi doimiy ish yoki uzoq muddatli faoliyat ma’nosi anglashilgan, ikkinchi gapdagi “ihonet”- xiyonat so‘zi qisqa muddatli ish mazmunini yuzaga keltirgan. *Çünkü da Cavalli ailesinin İspanyol kolu Franco rejimine çok hizmette bulunmuştu (R.H.K.). Chunki da Javalli oilasining Ispan avlodi Franko rejimiga ko‘p xizmat qilgan edi. Benim seçeciğim kadından başka kiminle en ufak bir ihanette bulunursan bunu ölümle ödeyeceksin (R.H.K.) Men tanlaydigan ayoldan boshqa kim bilan ham menga xiyonat qilsang, buni o‘liming bilan to‘laysan.* Bunday ma’no **bulunmak** fe’li o‘rin- payt kelishigidagi so‘z ishtirokida kelganida anglashiladi.*

Vaqt, payt semali so‘zlar bilan qo‘llangan **bulunmak** fe’li, “ayni mudatda ro‘y bermoq, yuzaga chiqmoq, bajarilmoq” ma’nolarini ifoda etish imkoniga ega. Masalan: *Asıl unutmayacak çağda bulunan bana acımalıdır (R.H.K.). Asıl unutilmaydigan davrda bo‘lgan menga achinish kerak. Hangi mevsimde ve hangi ayda bulunursanız bulununuz aynı durum gibidir (R.H.K.). Qaysi mavsumda va qaysi oyda bo‘lsangiz ham, ayni holatni ko‘rasiz, ya’ni miyaning qatig‘i qotib qolgan.*

Bulunmak fe’li ayrim mavhum ma’noli otlar ishtirokida kelganida, “ifoda etmoq, bildirmoq, munosabatda bo‘lmoq” ma’nolarini ifodalaydi:

Nilgun Prenseslik iddiasında bulunmasam bile o sahne gene tuhaftı, acayıptı (R.N.K.). Nilgun malikalik iddiasında bo‘lmasa ham, o‘sha sahna ga‘lati va ajoyib edi. Dilbeste yanımda oturup kalmaktan memnun şu tavsiyede bulundu (R.H.K.). Dilbesta yonimda o‘tirib qolganidan mamnun, shu tavsiyani bildirdi. Qayd etilgan sema ham **bulunmak** fe’lining muayyan semali so‘zlar, masalan,

iddia – da'vo, tavsiye – tavsiya kabi so'zlar bilan ishlatilganida, anglashiladi. Bu holda ham tavsiya, da'vo tipidagi so'zlar o'rin-payt kelishigi ko'rsatkichini oladi va **bulunmak** fe'li bilan qoliplanadi.

O'rganilyotgan yordamchi fe'l “mavjud bo'lmoq”, “bor bo'lmoq” semalarini anglatishga xizmat qiladi: *Her halde o'zel kamaralari **bulunan** bir vapurdur (R.H.K.). Har holda maxsus kayutalari **bo'lgan** bir paraxoddir. U'gradigim shahirlerde esher bizim memurlarimiz **bulunmuyorsa**, hemen ilishkiye girerim (R.H.K.). Borgan shaharlarimda agar bizning ma'murlarimiz bo'lsa, darrov ular bilan aloqa o'rnataman.* Shu jihatdan, **bulunmak** fe'li olmak leksemasiga monand ma'no va vazifada keladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Bulunmak fe'li o'ri-joy ma'nosidagi so'zlar bilan qo'llanganida, “joylashmoq, borgan bo'lmoq” semalari reallashadi. Masalan: *Tam birde otelinizde bulununuz (R.H.K.). Roppa-rosa birda mehmonxonangizda bo'ling. Nil orada **bulunmamakla** berber varmişçasına içimden bir şey koptuğunu duyuyorum (R.H.K.). Nil o'sha yerda bo'lmasa ham borday ko'nglimni to'q qilgan bir narsani his qilyapman.*

“Joylashmoq, yerlashmoq” semali **bulunmak** fe'li narsalar, predmetlar, binolar uchun qo'llanilishi mumkin: *Yatağının **bulunduğu** bölmeyi bir perde örtüyor (R.N.G.). Yotog'i joylashgan bo'lma parda bilan to'silgan.*

Bulunmak fe'lidan “qatnashmoq, ishtirok etmoq” ma'nolarini bildirishda foydalaniladi. Masalan: *Iki geçiş sırası davet ve ziyaretlerde **bulunmuştum** (R.H.K.). Ikki o'tish vaqtida chaqiriq va mexmonlarga brogan edim.*

Bulunmak fe'li “o'rnatilgan bo'lmoq, aloqadorlikni yuzaga keltirmoq” ma'nolarini bildirishi mumkin. Masalan: *Şimdi de olaya hiç ilişkisi **bulunmakla** beraber Grand Oriental Hotel'in camnın çerçevesini inderecektim (R.H.K.). Hozir hodisaga hech qanday aloqasi bo'lmasa ham, “Grand Oriental Xotel” oynasining ramkasini tushirmoqda edim.* Bu gapdagi **bulunmak** fe'li “aloqa o'rnatmoq, munosabat qurmoq” ma'nolarida ifodalangan.

Bulunmak fe'li, shuningdek, “e'tiborda tutmoq, tasavvur qilmoq, xayol qilmoq” semalarini anglatishga xizmat qiladi. Masalan: *Tarihi değerini göz*

önünde **bulundurarak** 1400 ruble verdik (R.H.K.). Tarixiy qiymatini ko'zda tutib, 1400 rubl berdik. Ayni ma'no muayyan sintaktik qurshovda ro'yobga chiqadi.

“Yashamoq, umr qilmoq” ma'nolari ham **bulunmak** fe'l leksemaning semalaridan biridir. Masalan: *Sakat bir kadınla **bulunmaktan** zevk almayacak mısın yoksa!* (R.H.K.). *Nogiron bir ayol bilan yashashdan zavq ololmaysanmi yoki? Böyle bungalov'umun ön bahçesi gibi, suya kanmış karanfil tarhlı bir dünya köşesi varolduğuna, daha doğrusu aynı dünyada ikisinin de **bulunuşuna** hayretle bakıyorum* (R.H.K.). *Shunday bungalovim (vaqtinchalik yashash uchun uy turi) ning old bog'i kabi, suvga to'yingan chinni gulag o'xshash dunyo burchagi borligiga, yanada anig'i ayni dunyoda ikkinchisining ham yashashga hayrat bilan qarayapman.*

Bulunmak fe'li “ma'lum bir narsalarga egalik qilmoq, biror narsaning sohibi bo'lmoq” semalarini tashiydi. Masalan: *Elimde **bulunanın** ne kadarini evde biraktirsem içim o derece rahat edecek* (R.H.K.). *Qo'limda borining qanchasini uyda qoldirsam, ko'nghim shu qadar rohat topadi.*

O'rin-payt kelishigidagi mavhum otlar bilan birikkan **bulunmak** fe'li “ma'lum bir ruhiy, emotsional ahvolga tushmoq” ma'nosini bildiradi: *Belli ki, demin onun bir oyununa daha gelmişim, dediklerini ciddiye almak **gafletinde bulunmuşum*** (R.H.K.). *Ma'lumki, yaqında uning bir o'yiniga yana laqqa tushibman, aytganlarini jiddiy qabul qilib g'aflatda qolibman. Ama Tayfur, Dilbeste daha birçoğu **ayni durumda bulunuyor mu?*** (R.H.K.). *Ammo Tayfur, Dilbasta, yana bir qancha odamlar ayni ahvolda emasdirlar?*

Ayni qayd etilganidek, **olmak** fe'li **-miş -acak, -r** shaklli sifatdoshlar bilan qo'llanilib, turli ma'nolarni ifoda etadi. **Bulunmak** fe'li **olmak** so'zi fe'li sinonimik munosabatga kirishishganida, **-makta, -miş** affiksli sifatdoshlar ishtirokida kelib, turli ustama ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Biroq **bulunmak** leksemasi **-acak, -r** shaklli sifatdoshlar bilan qo'llanilmaydi.

-makta bulunmak shaklidagi fe'l o'tgan zamonga oid ish-harakatning uzluksiz va davomli tarzda bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: *Herkes ondan*

korkmakta bulunmuştu (R.H.K.). *Hamma undan qo'rqadi. Kızlar ağası köşe milder uzerine uzanmış; elinde bir yelpaze uyumakta bulunmuştu* (R.H.K.). *Haram og'asi burchakdagi ko'rpacha ustiga cho'zilib olgan, qo'lida bir yelpig'ich, mudrab o'tirardi. **Korkmakta bulunmak** qo'shma fe'li nutq onidan avval harakat bajaruvchilarning ma'lum bir muddat oralig'ida qo'rqish harakatining bajarilganligini ifodalaydi.*

-miş bulunmak tipidagi fe'l bajarilishi nutq otdan avval bajarilgan, gapirilayotgan vaqtda bajarilishi davom etayotgan, tugallanmagan harakat-holat ma'nosini ifodalaydi: *Avrupada bulunan heyetlerinin hepsi yurda **dönmüş bulunmaktadır.** Ovropada bo'lgan xa'yat a'zolarining hammasi vatanlariga qaytmoqdalar. Asiler geniş ölçüde bir taarruza **girişmiş bulunmaktadır.** Qo'zg'alonchilar keng miqyosda isyon ko'tarmoqdalar.*

Bu shakldagi fe'l zamonga oid davomli, muntazam, doimiy ravishda ro'yobga chiqqan harakat, holat semasini anglatadi: *Son haftalar zarfında çok miktarda Amerikan askeri bütün teçfuzat ve silahlariyla beraber İngiltere'ye **varmış bulunmaktadır** (R.H.K.). So'nggi haftalar davomida Angilyaga amerikalik askarlar butun qurollari bilan yetib kelmoqda. Istanbul'da tifüs salgını ile üç günden beri şiddetli bir mücadele **başlamış bulunmaktadır** (R.H.K.). Istanbulda tif epidemiyasiga qarshi kurash, mana uch kundirki davom etmoqda.*

Xulosa. Bulunmak fe'l-leksemasi ham muayyan sintaktik qurshov asosida turli ma'nolarni yuzaga keltiradi. Turk tilidagi yordamchi fe'llar yakka o'zi yohud ma'lum so'z turkumlari (asosan ot va sifat) bilan qo'llaniladi hamda bu leksemalarning har biri yigirma-o'ttiz atrofidagi semalarni ifodalaydi. Yordamchi fe'llarning muayyan shakldagi so'zlar bilan qoliplashib kelib, turli ma'nolarni bildirishga xizmat qilishi kuzatiladi. Yordamchi fe'llar va yordamchi fe'lga vazifadosh leksemalar nutqiy vaziyat, konteksga ko'ra bir qator farqlanuvchi semalarni anglatadi. **Bulunmak** va **olmak** leksemalari boshqa yordamchi fellardan farqlich sifatdosh shakllari bilan qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova M. O`zbek va turk tillarida ot kategoriyalarining talqini: Filol fan. Nomz ... dis. Avtoref. T., 2004.- 26 b.
2. Айляров Ш.С. Развёрнутые члены предложения в современном турецком языке .-М.: Изд. МГУ, 1974. - 227 с.
3. Atabay N., Kutluk İ., Özel S. Sözcük Türleri. - Ankara: Ankara Üniversitesi basımevi, 1976. S.
4. Atabay N., Özel S., Ayfer Ç. Türkiye Türkçesinin Sözdizimi.-İstanbul: Papatya, 2003. -142 s.
5. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. М. Наука, 1952.-С. 381-382.
6. Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. –S. 268.
7. Karay R.H. Nilgün. - İstanbul:İnkilap, 1986.-754 s.
8. Karay R.H. Memleket hikayeleri. - İstanbul: İnkilap:19.-s.
9. Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004, -C,3.-S.2159.
10. Türkçe Sözlük. C.I.-S.78